



**BADIIY ASAR SYUJETI**  
**(JAMILA ERGASHEVA “JAZO” HIKOYASI MISOLIDA)**

*Mutalibova Muhtaram Abduraxim qizi*

*Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:*

*o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich 23.85-guruh talabasi*

*E-mail: [mutalibovamuxtaram@gmail.com](mailto:mutalibovamuxtaram@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada adabiyotshunoslik nazariyasida muhim hisoblangan tushunchalardan biri syujet haqida so‘z boradi. Maqolada syujet so‘zining ma‘nosi, uning ta‘rifi, “Yasama”, “Tayyor”, “Sayyor” syujetlar. Xronikal syujet, konsentrik syujet. Xronikal — konsentrik syujet. Syujetning tarkibiy qismlari: prolog, ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim, epilog. Shuningdek, tadqiqot obyekti sifatida Jamila Ergashevaning “Jazo” hikoyasi tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *syujet, “Yasama”, “Tayyor”, “Sayyor” syujetlar, xronikal syujet, konsentrik syujet, xronikal — konsentrik syujet, prolog, ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim, epilog, konflikt.*

**Abstract:** *This article discusses plot, one of the important concepts in literary theory. In the article, the meaning of the word plot, its definition, “Yasama”, “Tayyor”, “Sayyor” plots. Chronic plot, concentric plot. Chronicle - concentric plot. Components of the plot: prologue, exposition, knot, plot development, climax, resolution, epilogue. Also, Jamila Ergasheva's story "Punishment" is analyzed as the object of research.*

**Keywords:** *plot, “Yasama”, “Tayyor”, “Sayyor” plots, chronicle plot, concentric plot, chronicle - concentric plot, prologue, exposition, knot, plot development, culmination, resolution, epilogue, conflict.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается сюжет, одно из важнейших понятий в теории литературоведения. В статье представлено значение слова "сюжет," его определение, а также сюжеты “Yasama”,*



“Ташиюг”, “Sayyor” Хроникальный сюжет, концентрический сюжет. Хроникальный - концентрический сюжет. Компоненты сюжета: пролог, экспозиция, завязка, развитие сюжета, кульминация, развязка, эпилог. Также в качестве объекта исследования анализируется рассказ Джамилы Эргашевой “Наказание.”

**Ключевые слова:** сюжет, “Yasama”, “Ташиюг”, “Sayyor” сюжеты, хроникальный сюжет, концентрический сюжет, хроникально-концентрический сюжет, пролог, экспозиция, завязка, развитие событий, кульминация, развязка, эпилог, конфликт.

Har bir asar yaratilishida ma'lum bir fikrni, g'oyani ko'rsatib berish maqsad qilib olinadi va uni ko'rsatib berish, kitobxonga yetqizib berishda adabiyotshunoslik elementlari muhim hisoblanadi. Mana shunday vazifalarni bajaruvchi elementlardan biri syujetdir. U voqealar silsilasi bo'lib, badiiy asardagi bir-biriga bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Avvallari syujet faqat epik, dramatik va qisman lirik asarlargagina hos hodisa sifatida qaralgan, ammo hozirda syujet adabiyotning barcha turdagi badiiy asarlarida mavjuddir deyiladi.

Syujet haqida adabiyotshunoslik ilmida har xil qarashlar mavjuddir. Jumladan, XX asrning yirik nazariyotchilaridan biri G.N. Pospelov syujet epik hamda dramatik asarlarga xos deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u voqeaband lirika namunalarida ham syujet borligi, faqat bundagi syujet o'ta qisqa, hissiy to'yintirilganini ta'kidlaydi. Shuningdek, bunday syujetlar real emas, majoziy yoki fantastik mazmunga ega bo'lishi zarur deb uqtiradi. V.Y.Xalizev syujetni “adabiy asarda tasvirlangan voqealar silsilasi, ya'ni personajlarning makon va zamon o'zgarishlarida, bir-biri bilan almashinuvchi holat va sharoitlarda kechuvchi hayoti” sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, “syujet epik, dramatik va liro-epik janrlarning uyushtiruvchi asosi”dir. O'zbek adabiyotshunosligida ham syujetni an'anaviy – voqealar tizimi o'laroq tushunish ustuvor. Jumladan, I.Sultonga ko'ra, syujet “asarda hikoya qilinayotgan voqea”, “asar mazmuniga asos bo'lgan kichik yoki katta voqea” demakdir. Ustozlaridan farqli ravishda, so'nggi yillarda yaratilgan o'quv adabiyotlari



mualliflari T. Boboyev, E. Xudoyberdiyev va H. Umurov syujetni badiiylikni belgilovchi xususiyatlardan biri o'laroq talqin qiladilar va shundan kelib chiqib syujetlilik barcha turdagi adabiy asarlarga xosligini ta'kidlaydilar. Biroq ular ham syujet haqidagi qarashlarini ko'proq epik va dramatik asarlar hamda voqeband lirika namunalari asosida ifoda qiladilar. Mazkur hol syujet talqinida an'anaviylik hanuz nechog'lik kuchli bo'lmasin, adabiyotshunosligimizda uni "keng" tushunish ham boshlanganidan dalolat beradi. Syujetning tarkibiy qismlari haqida ham turli qarashlar mavjud. Masalan, Dilmurod Quronov o'zining "Adabiyotshunoslikka kirish" (2004) kitobida: "Badiiy asar syujeti ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi" deb aytadi. Hotam Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (2004) kitobida syujet tarkibiy qismlari haqida prolog, ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim, epilog mavjudligini aytib o'tadi. To'xta Boboyev esa "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (2002) kitobida syujet unsurlari sifatida ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim, prolog va epilogni aytib o'tadi.

Syujet haqidagi nazariyalar, qarashlar har xil bo'lishi mumkin, ammo barcha nazariyalarda syujet bitta masalaga qaratiladi, ya'ni u badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar, ifodalanayotgan fikr, mavzularni tartibli, izchil qilish, asarni badiiy qiymatini oshirish hamda uni kitobxonga yanda ta'sirli, jozibali qilib yetqizib berish. Quyida biz Jamila Ergashevaning "Jazo" hikoyasi misolida syujet va uning tarkibiy qismlariga oid nazariy va amaliy tahlillarni qilib o'tamiz.

Syujetni tashkil etuvchi voqealar bir-biri bilan turli tarzda bog'lanadilar. Bunda bir-biri bilan vaqt orqali bog'lansa xronikal syujet, bir-biri bilan sabab-oqibat orqali bog'lansa konsentrik, bu ikkala holat birlashsa xronikal- konsentrik syujet hisoblanadi. Xronikal syujetda ko'pincha sarguzasht, favqulodda hodisalarga o'rin beriladi qahramonlar ketma-ket to'siqlarga duch keladi, ularni yengadi, konsentrik syujetda bir-biri bilan mustahkam bog'liq bo'lgan voqealar silsilasida qahramon faoliyati izchil, sabab-oqibatga asoslangan holda ishonchli ochiladi, realistik va psixologik tasvir chuqurlashadi. Xronikal-konsentrik syujetda esa bir nechta



yo'nalishdagi yirik voqealar bir-biriga mustahkam bog'lanadi. Biz tahlil qilayotgan "Jazo" hikoyasi syujeti xronikal syujet sirasiga kiradi.

Syujet voqealar silsilasi demakdir va u bir necha elementlardan tarkib topgandir. Syujetning birinchi elementi ekspozitsiyadir. "Jazo" hikoyasida "To'shakda yotib qolgan odamning kunlari sira o'tmaydi, uzun bo'ladi. Tunlari undan-da uzun bo'ladi. Oysha xola oftobro'yada yotib, endi ko'zi ilingan ekan. Ko'cha tomondan kelayotgan shovqin-surondan cho'chib uyg'ondi" jumalari ekspozitsiya vazifasini bajargan. Syujet elementlaridan yana bir muhim qismi tugundir, u asarga ma'lum bir jumboq yoki masalani olib kiradi va kitobxonni yaqinlashayotgan konflikt voqealariga tayyorlaydi. Biz tahlil qilayotgan hikoyada tugun "Bir nafas butun vujudini quloqqa aylantirib, darvoza tomon tikildi. So'kinayotgan erkak, qarg'ab yig'layotgan ayol ovozi baravar eshitilar, undan biron narsani anglab olish qiyin edi" jumalari orqali aks etadi. Ya'ni kimlar urishmoqda, nima sababdan bu urishlar kelib chiqdi? Shu kabi savollar o'quvchini asarni o'qishga bo'lgan ishtiyoqini yana bir karra oshiradi. Tugundan keying sodir bo'ladigan voqealar ketma-ketligi voqealar rivoji deb yuritiladi. Hikoyadagi Oyishaning kelini bilan gaplashgani, Robiyaning turmushi, oilasi, ukasining nashavandligi, Oysha va Robiyaning ukasi va yangi qo'shni haqidagi suhbat, Oyshaning haj haqida o'ylashi, sumalak bilan bog'liq voqealarni eslashi, o'g'li Odiljon bilan gaplashishi, ammasi bilan suhbat, Samarqanddagi hovli-joy sotilish rasm-rusumi voqealar rivojiga misol bo'la oladi. Syujet rivojining eng yuqori cho'qqisi kulminatsiya sanaladi. "Jazo" hikoyasida "Momo, yangi qo'shni Hajga ketayotgan emish. Hammani chaqirib, osh berib duo olayotgan emish. Oysha indamay devor tomonga o'girilib yotib oldi. Devor ortidagi g'ala-g'ovur uch kun davom etdi" kulminatsiya hisoblanadi. Syujet tarkibining so'nggisi yechim hisoblanadi, unda badiiy asardagi voqea va qahramonlar taqdiri hal qilinadi. Hikoyada "Bugun yangi qo'shni xotini bilan Hajga jo'nab ketishi kerak ekan. Kecha oxirgi mehmonlar bilan o'tirib, birdan g'uldirab, gapirolmay qolibdi. Keyin o'tirgan joyidan qulab tushibdi. Do'xtirlar kelib, miyasiga qon quyilgan, debdi. Kechaning o'zida kasalxonaga olib ketishibdi. Ahvoli juda og'irmish" jumalari yechimdir, ya'ni hikoyaning asil g'oyasi shunda namoyon



bo'ladi. Yangi qo'shni narkotik sotib, insonlar taqdiriga, oilasining boshiga yomon, qora kunlar kelishiga sabab bo'ladi va bir kuni kelib u qilmishiga yarasha jazo oladi, shuning uchun ham hikoya nomi "Jazo" deb nomlangan. Zeroki xalqimizda ham "Al qasos minal haq – Har kim qilmishiga yarasha jazo oladi" degan gaplar mavjuddir. Sjuyet haqida yana bir nazariy masala bu syujet yaratish yo'llari, asosan uchta syujet yaratish usuli bor. Birinchisi, "yasama" syujet, bunda muallif asar voqealarini tasavvurda, badiiy to'qima fantaziya yordamida yaratadi. Misol uchun, "Sariq devni minib" asaridagi syujet silsilasi. Ikkinchisi, "tayyor" yoki "hayotiy" syujetlar, bunda hayotdagi sodir bo'lgan yoki sodir bo'layotgan tayyor voqealar prototip sifatida asarga syujet qilib olib kiriladi. Biz tahlilga tortgan "Jazo" hikoyasi syujeti ham "tayyor" syujet silsilasiga kiradi. Uchinchisi, "sayyor" yoki "o'zlashtirilgan" syujet bunda yozuvchilar adabiyotda ma'lum bo'lgan syujetlarga asoslanib, o'z asarlarida ularni yangicha holatda talqin qiladilar. Misol uchun, "Xamsa" asari. Shuningdek syujetlar silsilasida prolog va epilog tushunchalari ham bor. Hotam Umurov ularni syujet elementlariga kiritisa, Dilmurod Qur'onov "bu unsurlar syujetga bevosita aloqador emas, ular ko'proq kompozitsiyaga aloqador elementlardir" deb ta'kidlaydi. Prologda qahramonlarning syujet vaqtidan oldingi hayoti tasvirlanadi. "Jazo" hikoyasida "Robiya uning qiz dugonasi. O'zi yaxshi qiz edi, qaddi-basti kelishgan. Ammo bechoraning baxti chopmadi. Ikki farzandli bo'lganda eri oshqozon saratonidan vafot etdi. O'ziyam boshqacha yigit edi. Farzand dog'ida kuygan qaynona-qaynotasi uning uyidan chiqolmay qoldi", "Bu orada onasi o'lib, otasi boshqa ro'zg'or qildi", "Ilgari «Bibilarning oshi» deb sumalakni ham har kim pishirishga jur'at qilavermasdi. Ularning ko'chasida faqat uning onasi yiliga uch martalab sumalak pishirardi. Biram shirin bo'lardi bu sumalak" jummalari prolog vazifasini bajargan. Epilogda esa qahramonlarning syujet vaqtidan keying hayoti tasvirlanadi, shu sababdan ham bizningcha epilogni "qahramonning keying tarixi" deyish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, syujet va uning turlari, tarkibiy qismlari badiiy asarning ma'lum bir tartib va izchillikda rivojlanish tizimidir. Bu haqida: "Asarning syujetli bo'lishi uning estetik qimmatining eng muhim shartlaridan biridir.



Syujetsizlik badiiysizlikka olib keladi”, - deb aytib o‘tadi N.Chernyshevskiy. Shuningdek M.Gorkiy “Syujet adabiyotning uchinchi elementidir”, – deydi. Demak, syujet badiiy adabiyotning barcha turlari va janrlarida bo‘lishi tabiiydir. Lekin uning voqeiy bo‘lishi har bir tur va janrning predmetiga, tabiatiga mos bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umurov.H Adabiyotshunoslik nazariyasi. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004.
2. Quronov.D Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004.
3. Quronov.D Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Sharq, 2008.
5. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
6. Umurov.H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. – Toshkent: Fan, 1983.
7. Xudoyberdiyev E. Badiiy asar kompozitsiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
8. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.